

**“VAQF YERLARI TAQDIRI: 1898-YILGI ARXIV PROTOKOLLARI ASOSIDA
MAXDUMI XORAZMIY VAQFI TAHLILI”**

Hamdamova Shoirra

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

tayanch doktoranti.

e-mail: hamdamovashoira1993@gmail.com

ORCID: 0009-0004-0866-3981

Annotatsiya

Ushbu maqolada Kubroviyya tariqatining yirik namoyandasi Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy tomonidan tashkil etilgan vaqf mulklarining XIX asr oxiri – Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida qanday tekshirilgani, baholanganligi va uning keyingi taqdiri arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan. 1898-yilda Samarqand yer-o‘lponi hay’ati tomonidan tuzilgan 35-protokol matni asos qilib olingan bo‘lib, unda Maxdumi Xorazmiy madrasasiga tegishli vaqf yerlari, mutavallilarning faoliyati, yerlarning taqsimoti va real holati hamda rus ma’muriy tizimining vaqf yerlari bo‘yicha yuritgan siyosati batafsil yoritiladi. Maqolada, shuningdek, 1886-yilgi Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizomning tegishli moddalariga tayangan holda vaqf yerlari maqomi va ularning soliq masalalari o‘rganiladi. Arxiv hujjatlari tahlili natijasida ushbu vaqfning huquqiy maqomi noaniq bo‘lib qolganligi, uning keyingi taqdiri yuqori instansiyalarga ko‘chirib qaralganligi haqida xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: vaqf, mutavalli, Maxdumi Xorazmiy, Samarqand, Turkiston o‘lkasi, rus ma’muriyati, yer-o‘lpon, arxiv hujjatlari.

Introduction

Kubroviyya so‘fiylik tariqatining atoqli namoyandasi Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy (1465–1551) umrining asosiy qismini Samarqandda o‘tkazadi. Uning nasl-nasabi Abu Bakr Siddiq va Umar ibn Xattobga borib taqaladi. U otasidan dastlabki ta’limni oladi va keyinchalik Shayx Umaduddin Fazlulloh va Shayx Xubushoniy qo‘l ostida tahsil oladi, 11 yillik ta’limdan so‘ng to‘liq ma’naviy yetuklikka ega bo‘ladi. Ushbu maqolada Shayxning Samarqandda 1529-yilda qurdirgan deya taxmin qilinadigan xonaqohiga tegishli arxiv hujjatlaridan biri bo‘lmish 35-protokolning mazmun-mohiyati bilan tanishib chiqiladi. Ushbu protokol O‘zbekiston Milliy Arxivida I-18 Ro‘yxat-1, 9997-yig‘ma jildida saqlanayotgan bo‘lib, 1898-yilga tegishlidir.

Shu o‘rinda “Vaqf” masalasi bo‘yicha bir necha fikrlarni aytib o‘tish o‘rinlidir. 1870–1880-yillarda hokimiyatning turli darajalarida Rossiya Turkistonidagi vaqflarning huquqiy maqomi qanday bo‘lishi kerakligi borasida keskin bahslar yuzaga kelgan. Birinchi Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman (1867–1881/82 yillar) va uning tarafdorlari shunday fikrda ediki, yer osti boyliklari, shu jumladan vaqf yerlari ham davlat mulki bo‘lishi kerak, edi. Shuningdek, vaqflarni to‘liq musodara qilish masalasi ham muhokama qilingan, ya’ni musulmon muassasalari (sobiq vaqf egalari)ga ular uchun ma’lum miqdorda tovon to‘lash rejalashtirilgan. Biroq bu g‘oya Sankt-Peterburg amaldorlari tomonidan tanqid qilingan. Ular vaqflarni bekor

qilish musulmon O'rta Osiyolik aholining noroziligi va tartibsizliklarga olib kelishidan qo'rqishgan [Abashin. 2003].

Biz quyida tanishadigan hisobotda ham vaqf mulkiga oid munosabatlarning tartibga solinishi masalasi muhokama etiladi. Unda jumladan quyidagi sarlavha qayd etiladi: "Samarqand yer-o'lponi hayatining 1898-yil 22-iyundagi majlisi". Sarlavhadan ko'rinib turibdiki, masala aynan vaqf mulkiga tegishli bo'lgan yerlardan olinadigan soliqlar, jumladan ularning tasarrufi masalariga bag'ishlangan. Hay'at tarkibini esa quyidagi shaxslar tashkil etgan:

"Pastda berilgan tarkibdagi Samarqand yer-o'lponi hay'atida: Rais- polkovnik Chertov V.I, yer-o'lpon komissarlari, shtat maslahatchilari: Xomutov P.A, Virskiy N.M, Blagoveshenskiy V.M, polkovnik Anichkov V.A, uyezdlarda rejaga olish mudiri, kollej maslahatchisi Xmelinskiy V.S va o'lpon inspektorlari: knyaz Mansirov S.P, hamda Starodubsev I.F (Shtat maslahatchisi Naroveskiy V.I o'tpuskada bo'lganligi boisi ishtirok etmadi) quyidagilar tinglandi:

4-uchastka komissari, shtat maslahatchisi Xomutovning 20 iyundagi 31-sonli raporti, unda Maxdumi Xorazmiy madrasasidagi vaqf ishlarining 1893-yil 12-sonli yakuniy tekshiruvlari bayon etilgan. Mazkur ishni ko'rib chiqishda ma'lum bo'lishicha, bunda mutavalli Saidali Xo'ja Eshon Umarxo'janing 1897-yil 2-maydagi oxirgisi tarjimai mavjud vaqf hujjati arizasidan tashqari, Samarqand viloyati boshqaruvining 11 may 1893 yildagi 36 –sonli Umumiy ishtiroki jurnali va vaqf hujjati sharhi yer-o'lponi hay'ati tuzgan Protokollarda bayon etilgan quyidagi tadqiqotlardan iborat: 1) quyidagi tarkibli 11-iyul 1893-yildagi 5 ta uchastka Komissari: Blagoveshenskiy 5-uchastkasi yer-o'lpon komissarlari O'qon Buyrachi qishloq jamiyatining, Ishim-Oqsoq hududining ellikboshilari, Sanaqul O'rozmatov va shu qishloqda yashovchilar; Samandar-Boyda o'g'li, O'tashboy Ermetov, Qosimboy Mirzayorov va Sanaqul Muhammadqulovlar Hazrati Mahdum Xorazmiy madrasasining vaqf mulki masalasi bo'yicha so'roq qilindi, ularning ko'rsatishicha, haqiqatan ham ular qishloqlari chegaralarida madrasadan yuqorida belgilangan vaqf yerlari mavjud, lekin ular taqdim etilgan hujjatlarda qayd etilganlardan emas. Brinjoq-Shavdar tyumeni, Barxan-Shavdar tyumeni va Toyloq-Shavdar tyumeni Qoradaryoning chap qirg'oqlarida joylashgan. O'qon qishlog'i vaqf yeri ustidan Oqil xo'ja To'ra o'g'li mutavalliligidan iborat, mutavalli Said o'g'li Xo'ja Eshon Umarxo'ja o'g'li tomonidan taqdim etilgan hujjatlar ular vaqfiga hech qanday bog'liqlikka ega emas. O'qon qishlog'i vakili Sanaqul O'rozmatov savodsiz bo'lganligi uchun ismi tushirilgan bosma bilan imzoladi. Samandar Boyda o'g'li, Qosimboy Mirzayorov, O'tashboy Ermatov va Sanaqul Muhammadqulov savodsizdirlar.

2) 1893 yil 13 iyul kuni Qarori: menga taqdim etilgan Samarqanddagi Hazrati Mahdumi Xorazmiy madrasasiga tegishli bo'lgan mulkning vaqf hujjati O'qon, Bo'yrachi qishloq jamiyati, Eshim-Oqsoq hududi qishloqlar yerlari uchastkasiga kirmasligini e'tiborga olib, men, Blagoveshensk Kollej maslahatchisi, Samarqand uyezdi 5-uchastkasi yer-o'lpon komissari, shu yilning 21-maydagi 70-sonli qaroriga amal qilgan holda, quyidagilarni tayinlayman: Samarqand viloyati boshqaruvi Vaqtinchalik yer-o'lpon bo'limining Hazrati Mahdumi Xorazmiy madrasasi vaqf mulki hujjati mavjud 1893-12-sonli ishini keyinchalik ko'rib chiqish uchun Samarqand uyezdi 4-uchastka Komissariga o'tkazilsin.

3) 4-uchastka fuqaro maslahatchisi komissari Xomutov qarori. Samarqand yer-o'lpon hay'atining Hazrati Mahdumi Xorazmiy madrasasi vaqfiga tegishli bo'lgan hujjat mavjud 12-

1893 dagi vaqf ishini olgandan so'ng, men, 4-uchastka yer-o'lpon komissari Xomutov, oldindan mazkur madrasa joylashgan Samarqand eski shahariga bordim hamda u yerga mutavalli ham chaqirildi; yuqorida tilga olingan madrasa Maxdumi Xorazmiy kvartali Qalandarxonaning shahardagi qismida joylashgan. Mutavalli savol-javob bo'yicha quyidagilarni aytdi: Samarqand viloyati boshqarmasiga hujjatni taqdim etgan Said Ali Xo'ja Eshon Umarxo'ja 4 yil oldin qazo qilgan va Orifxon Aminxo'ja mutavallilikni qabul qilgan, u quyidagi ko'rsatmalarni berdi: qozi Mir-Umar Xo'ja tasdiqlagan vaqf yeri Toyloq qishloq jamiyatining Toyloq Poyon, Eski Juma qishloqlarida va Bo'zxona chegaralaridagi mahalla hududida joylashgan, taxminan 700 tanob sug'oriladigan yerlar miqdorida, bu yerlar chegaralari qayerlarni tashkil etishini u bilmaydi va ko'rsata olmaydi, chunki bu yerlar mutavalli tasarrufida emas; ilgari bu yerlardagi mahalliy yashovchilar undan foydalanadilar, ruslar egalik qilgunicha bu yerlar o'lponi egasiga, so'ngra Mir-Umar Xo'jaga to'langan. Hudud band etilganidan so'ng, Mutavalli bevosita Uyezd Boshqarmasidan pul olgan. Orifxon Toyloq yeri uchun 830 rubl olgan, vaqfning vasiyat qiluvchisi amriga muvofiq, bu pulning 83 rubli ya'ni 10 dan bir qismini o'ziga olgan, qolganini 9 ta hujradagi 18 ta yashovchilarga tarqatgan va har bir yashovchiga 9 rubl 35 tiyindan to'g'ri kelgan, hamma 9 tasiga 84 rubl 15 tiyin sarflangan. Qolgan 662 rubl 85 tiyin Umarxo'jadan qolgan Samarqand shahrida yashovchi merosxo'rlarga- to'rtta erkak kishiga va to'rtta ayol kishilarga berilgan. Kirim-chiqim daftari yuritilmagan; 662 rubl 85 tiyinga keyinchalik qo'shimcha qilib, merosxo'rlarga hammasi bo'lib 512 rubl 85 tiyin berilganligini ko'rsatdi, ulardan Oqilxo'ja To'raxo'ja, ishlarni olib boruvchi mutavalli, o'z foydasiga 150 rubl olib qolgan va merosxo'rlar tomonidan bir necha marta talab qilinganligiga qaramasdan, olib qolgan 150 rublni qaytarmagan. To'qqizta hujra ko'zdan kechirilganda, sobiq mutavalli Orifxon hamda Oqilxo'ja ko'rsatmalari bo'yicha, bu hujralar faqat Mir Umarning ta'sis etilgan vaqfiga kiradi, bunda hozirgi vaqtda 18 ta kishi yashaydi, aytib o'tilgan hujralar gumbazsimon shiftli pishiq g'ishtdan qilingan, har birida ikki kishi yashashiga mo'ljallangan, madrasa qurilganiga 300 yil bo'lgan, vaqt o'tishi bilan ohaklari ko'chib tushgan, shunga qaramasdan, barcha hujralar qoniqarli holatda, yana shuni qo'shimcha qilish lozimki, yashovchi 18 tadan faqat bitta o'qituvchining ko'zi ko'ra oladi, qolganlarining ko'zi ojiz, ular orasida o'qituvchi Qur'onni faqat yod oldirish bilan o'rgatadigan bolalar mavjud. Chaqirilgan ko'zi ojizlarning aytishicha, ular mutavallidan har bir hujra uchun 9 rubl 35 tiyin oladilar, ular bu erda doimiy yashaydilar. Mutavallining bayon etishicha, Qozi Mir Umarxo'ja vafotidan so'ng erkak merosxo'rlardan Orifxo'ja- Aminxo'ja, Abdurahmon xo'ja, Abdusamadxo'ja, Abdulhamidlar va ayol merosxo'rlardan Oftobsohiba, Poshshosohiba, Inoqsohiba va To'rasohibalar qolgan.

Bular ostiga mahalliylik bo'yicha yozilgan: Orifxo'ja mutavalli, Olimxo'ja o'g'li qo'l qo'ygan.

4) 1898-yil iyunning 12-kuni Qarori. Mutavalli Orifxon Alimxo'ja savol-javoblari bo'yicha, men, 4-uchastka yer-o'lpon komissari Xomutov Mahdumi Xorazmiy madrasasini tekshirib ko'rish uchun Toyloq qishloq jamiyati mahalla hududidagi Toyloq Poyon qishlog'iga bordim, u yerga hudud boshqaruvchisi Mahmudbek, Toyloq oqsoqoli yordamchisi, Toyloq Bolo qishlog'ida yashovchi Abdusattor Muhammad Raim (hozirgi oqsoqol podsholik pullarini o'zlashtirib, noma'lum joyga yashiringan), ellikboshilar: Yusuf Mamanosir, Muhammad Raim Qo'shmuhammad, Alixo'ja Buzrukxo'ja, mahalliy yashovchilar hamda mutavalli Orifxonlar

chaqirildi. Qishloq ma'muriyati va mahalliy yashovchilar so'roq bo'yicha quyidagi ko'rsatmalarni berdi: Toyloq Poyon qishlog'ida 500 tanob, Eski Jumada 100 tanob, Bo'zxonada (Do'lta qishlog'ining janubiy qismi va shimoliy To'qal qishlog'i) 100 tanob mavjud, jami 700 tanob bo'lgan bu yerlar Mir Umarxo'ja avlodlariga tegishli bo'lgan va bu yerlar to'laligicha avloddan-avlodga o'tib kelgan; o'z ota-onalaridan eshitishlaricha, Mir Umar avlodlari badavlat kishilar bo'lgan, doimo shaharda yashaganlar, katta lavozimlarni egallaganlar, o'zlari xo'jalik ishlari bilan shug'ullanmaganlar va o'z yerlarini kichik uchastkalarga bo'lib, ma'lum darajada o'lpon to'lash sharti bilan boshqalarga berganlar. Ular 100 yildan ortiq vaqtdan beri shu usulda yerdan foydalanganlar. So'ngra 40 yildan ko'proq vaqt ilgari ma'lum bo'lishicha, Qozi Mir Umarxo'ja barcha yerlarini vaqf tasarrufiga o'tkazgan va mutavallilik qilgan, yerlarni ruslar egallaganicha o'lpon olib turgan; yerlarning o'zgartirilishida egalari ham, Mir Umar oilasi hamda avlodlari ham ishtirok etmagan, ularga yerga shaxsiy xo'jayinlik qilish huquqini berganlar. Shu boisdan, ular bu yerlarga nisbatan to'liq xususiy mulk egalari aylanganlar va yerlar meros yo'li bilan qo'ldan-qo'lga o'tib qolmasdan, hattoki xususiy mulk sifatida boshqalarga sotilgan, buning isboti: Toyloq-Poyon qishlog'ida 80 tagacha, Juma qishlog'ida 35 tagacha, To'qal Do'lta qishlog'ida 60 ga yaqin xususiy mulk egalari mavjuddir, ular barchasi mahalliy kishilardir. Taqdim etilgan hujjat ular uchun butunlay notanish tuyuldi, ta'riflangan chegaralarga nisbatan ular tomonidan ko'pgina fikrlar aytiladi: Eski Juma qishlog'ining janubida qishloqlar chegarasi ko'rsatilgan. Davlat qishlog'i haqiqatan ham Do'lta qishlog'i yerlari chegarasi sanaladi. Mutavalli Orifxonning aytishicha, hujjatda Davlat va Do'lta qishloqlarini belgilashda xatolik bo'lgan. So'ngra mutavalliga, hudud boshqaruvchisiga va boshqalarga hujjatdagi muhr Amirlardan qay biriga tegishli ekanligini aniqlash lozimligi taklif qilindi, biroq barcha yig'ilganlar yagona qarorga kelishdiki, buni aniqlash biron bir imkoniyatga ega emas, saqlanib qolgan quyidagi so'zlardan tashqari: "Mening qarorim haqqoniy hisoblansin". Qozilar muhrlari bekor qilindi.

Xulosa: barcha fikrlar tinglanib va hujjatning o'zi hisobga olinib, quyidagi xulosalar qilindi: 1. Muhrda mavjud bo'lgan 52 raqami muhr Amir Nasrulloqga tegishli bo'lgan, degan xulosani beradi, biroq bunda vaqf aynan Amir tomonidan tasdiqlangan, degan mulohazani ishonchsizlik bilan aytish ham mumkin. 2. Agar u tasdiqlangan degan juda shubhali taxminni ilgari surganimizda ham, bu vaqf amalga joriy etilganligi ma'lum emas, ya'ni, g'aznaga beriladigan o'lponlar berilmagan. 3. Vaqf egasining so'zlaridan ko'rinib turibdiki, olinadigan 830 rubl daromadning o'ndan bir qismi faqat madrasada yashovchi ko'zi ojizlarga ehson qilingan, mutavallining egalik qismidan tashqari qolganlari to'liq Mir Umar merosxo'rlariga berilgan. 4. Vaqfda vasiyat qilingan yerlar faqat aholi yashaydigan yerlar emas, balki aholi zich yashaydigan yerlardir: Toyloq-Poyon qishlog'ida yashash uchun qulay bo'lgan 643 botmon 820 kv. sarjinda 179 ta mulk egalari mavjud. Eski Jumada 114 botmon 600 kv. sarjinda 65 ta mulk egasi to'g'ri keladi va To'qal qishlog'ida 199 botmonga 100 ta egalik to'g'ri keladi. Olingan ma'lumotlardan va Toyloq-Poyon, Eski Juma va To'qaldagi barcha yerlarning haqiqiy egaliklari tasdiqlanganligidan kelib chiqib, quyidagicha qaror qilinsin: bu yerlar egalardan g'aznaga o'lpon undirish bilan ularga qoldirilsin va Turkiston o'lkasi Boshqarmasining Eng yuqori (Bu yerda 1886-yil qabul qilingan Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom

nazarda tutilayotgan bo'lsa kerak) nizomidagi 265, 286 va 299 moddalariga amal qilgan holda, maxsus qaror bilan vaqf tan olinmasin va mutavalliga bu haqda bildirilsin.

Shu o'rinda Nizomdagi ushbu moddalarning mazmum-mohiyati bilan tanishib o'tsak o'rinli bo'ladi. Jumladan, 265-moddada shunday deyiladi: "Aholi punktlari: Muayyan shartlar asosida qishloq jamoalari ixtiyorida qoladi. Aholi punktlari bo'lmagan xususiy vaqflar: Ular kimning manfaati uchun tashkil etilgan bo'lsa, shu shaxslar va ularning merosxo'rlari ixtiyorida vafotigacha qoladi.

286-moddada esa Davlat yer solig'idan ozod qilingan yerlar sarlavhasi ostida quyidagi matn keltiriladi: "1886-yilgi Davlat yer solig'i qoidalariga muvofiq yer solig'idan ozod qilingan yerlar toifasiga quyidagilar kiritilgan: masjidlar daromadi, maktablar yoki jamoat farovonligi uchun mo'ljallangan aholi yashaydigan vaqf yerlari; sayohatchilar uchun ibodat, bayram yoki dam olish joyi bo'lib xizmat qiladigan masjid bog'lari va bog'lar.

299-modda matnida vaqflarga (xayriya yoki diniy maqsadlar uchun meros qilib qoldirilgan mulk) hadya qilingan yerlar uchun davlat yer solig'i to'g'risidagi qoidalar mavjud. Unda ushbu soliqni vaqflar kimning foydasiga tashkil etilgan bo'lsa, o'sha muassasalarga o'tkazish tartibi bayon etilgan.

Soliq masjidlar, maktablar yoki jamoat farovonligi tashkilotlari foydasiga vaqflar uchun foydalaniladigan aholi punktlari yerlaridan undiriladi.

Soliq muassasalar vaqf hujjatlariga muvofiq barcha to'lovlarni (xiroj va tanob) olgan bo'lsalar, ularga to'liq o'tkaziladi.

Aks holda, soliqning faqat hujjatda ko'rsatilgan to'lovlar ulushiga mos keladigan qismi o'tkaziladi.

Qolgan soliq xazina daromadiga qo'shiladi.

5. 1898 yil iyun 15 kuni qarori. Bu qaror men-Komissar tomonidan xulosa qilindi va mutavalli Orifxon Alimxo'jaga bildirildi, tinglagach, quyidagilarni: bu barcha yerlar avvalgi asosda vaqfli deb qoldirishni, chunki egalari norozi bo'lishini bayon etdi.

Ostiga mahalliy tilda tarjima qilinib quyidagilar yozilgan: Vaqfni qoldirishni o'tinib so'raymiz, biz ko'zi ojizlar boshqa biron daromadga ega emasmiz, hunarimiz yo'q, biron kishi bizlarga ish bermaydi, agar bizdan bu vaqf olinsa, biz och qolamiz, bizning yashashimiz uchun yagona manba shu vaqf sanaladi, Mutavalli Orifxo'ja Alimxo'ja imzo qo'ydi.

Shundan so'ng 4-uchastka Komissari tomonidan quyidagilar qayd etilgan: Mutavallining arizasi yuzasidan faqat bitta tanqidiy mulohaza bildirmoqchiman: nimagadir Mir Umarning merosxo'rlari mazkur vaqf joriy etilgunicha och qolmaganlar, axir vaqf tan olinmaganida ular ochlikdan vafot etishlari mumkin bo'lganku.

Yuqorida aytilganlarni ko'rib chiqib va 4-uchastka Komissarining to'g'ri ma'lumotlar topilmagunicha, mutavallining rad etishlarini hisobga olmasdan, vaqfni tan olmaslik haqidagi xulosasiga tayanib, qaror qilindi: bu ish Samarqand Viloyati Boshqarmasi ixtiyoriga taqdim etilsin, deb komissiya a'zolari ja'mi 6 kishining imzosi keltirilgan.

Ushbu hujjat bilan tanishib chiqar ekanmiz, unda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan bir nechta jihatlarga ko'zimiz tushadi. Birinchidan, Vaqf hujjatini tuzish uchun o'sha paytda quyidagilar kerak bo'lar edi: kelishayotgan shaxslar va bu hujjatni tuzayotgan vaqtda ikki guvohning bo'lishi lozim va agarda guvohlardan biri vafot etgan taqdirda bu hujjat mavjud

bo'lsa ya'ni bor bo'lsa bu hujjat, kelishuv bajarilgan deb hisoblanar edi. Bundan tashqari bu hujjatda vaqf qilingan mulklar ro'yhati, nima maqsadda vaqf qilayotgani, unga ta'yinlangan nazorat qiluvchining ism Sharifi va qay tartibda bo'lingani undan tushadigan foydalar nima qilinishi, vaqf qilgan odamlarning ism sharifi, ko'chmas mulk bo'lsa uning joylashgan o'rni chegaralari aniq qilib ko'rsatilgan bo'lishi lozim edi. Vaqfnomalar o'raladigan qog'oz yoki kitob shaklida yozilgan [G'offorov, Umurov, 2023]. Ushbu xonaqoh vaqfnomasi 300 yil oldin tuzilganini inobatga oladigan bo'lsak, bu vaqtga kelib vaqf chegaralari haqida to'liq ma'lumotga ega insonning o'zi qolmaganini, bu chegaralar vaqt o'tishi bilan turli o'zgarishlar tufayli o'z o'rnini yo'qotganini inobatga oladigan bo'lsak, ruslar talab qilayotgan aniq chegaralarni ko'rsatib berish amalda imkonsiz edi. Buni yaxshi anglagan rus tarixchisi A.L. Kun, 1870-yillarning boshida Zeravshan okrugidagi (Samarqand shahri va unga tutash hududlar) vaqflarni o'rgangan paytda, "kitobiy" normalar bilan real hayot orasidagi farqqa darhol e'tibor qaratdi. O'z yozuvlarida A.L. Kun shunday yozadi: «Vaqflar bo'yicha to'plangan va imkon qadar shaxsan tekshirilgan barcha ma'lumotlar ichida men faqat tartibsizlik va chalkashlikni ko'rdim: mutavalli ham merosnomalarda nima yozilganini, qaysi yerlar hadya qilinganini, kimga qanchasi berilishi kerakligini, va uni qanday sarflash lozimligini aniq bilmaydi...» [Abashin. S.N, 2003]

Buni rus hukumati ham juda yaxshi bilgani holda, vaqf xo'jaliklari oldiga shunday qiyin masalani qo'ydi va natijada birin-ketin barcha vaqf mulklari o'z ahamiyatini va o'rnini yo'qota boshladi. Misol uchun, vaqf mahkamalari 1877-yillarda o'z yerlaridan olingan daromadini uyezd boshqarmasidan olayotgan bo'lib, shunda ham mazkur daromadning bir qismi ushlab qolinayotgandi [G'offorov, Umurov, 2023].

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda vaqflarni o'rgangan rus mualliflaridan biri M.N. Rostislavovning so'zlariga ko'ra, mutavalli vaqfning iqtisodiy ishlarini boshqaradigan, uning iqtisodiy ishlarini nazorat qiladigan va vaqf daromadlarini taqsimlaydigan shaxs bo'lgan. Bundan tashqari, mutavallining vazifalariga vaqf yerlari uchun ijarachilarni topish va ular bilan bitimlar tuzish ham kirgan.[Ismatova]

Mana shunday bir paytda 1891-yilning 10-apreliga kelib vaqf mahkamalarining mulklari to'g'risidagi avvalgi qonun-qoidalar baron Vreevskiy tomonidan yana qayta ishlab chiqiladi. Bunda vaqf mahkamalari va ularning mulklari, huquqi mazkur mahkamalarni soliqlardan ozod etish bilan aralashtirib yuboriladi. Jumladan, viloyat boshqarmalari uchun qayta ishlab chiqilgan qo'llanmaning 5-moddasida shunday deyilgandi: Viloyat boshqarmasiga topshirilgan vaqfnomalardan "amir" va "xon"larning muhri bor bo'lgan vaqf hujjatlari ajratib olinib maxsus komissiya orqali Komissarga o'rganib va tekshirib chiqish uchun beriladi. Qolgan vaqfnomalar esa keying ko'rsatmalar bo'lgunga qadar viloyat boshqarmasidan qoldiriladi. Bunday qonunga xilof ravishda ish tutish bilan ko'pchilik vaqf hujjatlarini general gubernatorlik ishlab chiqqan qo'llanmalarga javob berish masalalari o'rganila boshlandi. Bu bilan viloyat boshqarmalari va komissiya a'zolarini soxta yo'lga solib qo'lyildi ya'ni endilikda asosiy diqqat e'tibor "amir" va "xon" lar muhri masalasiga qaratilmoqda edi [G'offorov, Umurov, 2023]. Ushbu vaqf hujjatida ham Amir Nasrulloqa tegishli deya taxmin qilinayotgan muhrga nisbatan boshqa bir ayblov, ya'ni o'lpon to'lanmaganlik da'vosi orqali e'tiroz bildirilganligini guvohi bo'ldik. Demak

podsho muhri ham vaqfnomaning haqiqiyligini to'laqonli isbotlab berish uchun asos bo'lolmagan.

1891-1892-yillarda vaqf yerlarini tekshirib, o'lchab chiqqanlarida ushbu yerlar vaqfnomalarda boshqacha ekanligi ma'lum bo'ldi. Albatta, buning sababini mutavallilarning ko'pchiligi yangi tayinlangani uchun ham tushuntirib bera olmadilar. Bu yerda shuni ham ta'kidlab, o'tishimizga to'g'ri keladiki, 1877-yilgi tekshiruv natijasida vaqf yerlarining maydoni hujjatdagidan kam qilib yozib olingandi [G'offorov, Umurov, 2023].

Xulosa

O'rta Osiyoda yer egaligining asosiy turlaridan biri bo'lmish vaqf mulklari toki rus hukumati tomonidan egallanmaguncha o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Faqatgina chor Rossiyasi davriga kelib, ularning soliq imtiyozlari hamda iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish asnosida asta-sekinlik bilan davlat ixtiyoriga o'tkazilish jarayoni davom etgan. Bunda dastlab birdaniga mulk egalaridan tortib olinmay, hatto ba'zi vaqf hujjatlarini tekshirish uchun 5-10 yillab vaqt sarflangan. Biroq natijasi aniq ushbu tekshiruvlar davomida oxir-oqibar vaqf mulki tan olinmagan va uning sotilgan qismlari o'z egalarida qoldirilgan. Biroq bu bilan hukumat vaqflardan keladigan daromadni o'zi taqsimot qilish majburiyatini zimmasiga olgan. Yuqoridagi biz tanishgan hujjatda ham uchastka komissarlarining xulosalariga tayanib, vaqf haqida aniq bir xulosaga kelinmagani, uning keyingi taqdiri boshqa yuqori organga ko'chirilganiga guvoh bo'lamiz. Ushbu hujjat kompleks o'rganishni va kengroq tadqiq etishni talab qilgani uchun mavzu to'lig'icha tugallanmagan. Arxiv hujjatlarini o'rganish davomida ushbu vaqfning keying holati, unga tegishli so'nggi farmon qanday bo'lganligini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bartol'd, V.V. K istorii orosheniia Turkestana. In: Sochineniia 3 : Raboty po istoricheskoi geografii, 95-233. Moskva, 1965.
2. Bartold V. «Работы по источниковедению». Том 8. Издательство «Наука», Москва, 1973.
3. G'offorov S. S., Umurov S. R., Nosirov S. I. O. G. L. O'zbekistonda vaqf mulklari: tarix va hozirgi zamon (Samarqand misolida) //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 341-348.
4. Ismatova N. Samarqand vaqf xo'jaligida mutavalli lavozimiga tayinlash: an'anaviy tartib va yangi tizim amaliyoti. 2016/1. O'zbekiston tarixi. -B 22
5. Kattayev K. Maxdumi Xorazmiy va xonaqohi tarixi. "Zarafshon" nashriyoti, Samarqand, 2003. -B 7.
6. O'zbekiston Milliy Arxividagi I-18 Ro'yxat-1, 9997-yig'ma jildida saqlanayotgan 1898-yilgi hujjat
7. ДеВис Д. Хусайн Хорезми: Среднеазиатский суфий начала XV в. // Из истории Каримов Э. К характеристике некоторых позднесредневековых источников по истории деятельности тариката Кубравийа в Центральной Азии /O'zbekiston Tarixi.

-
- Каримов Э. Регесты казийских документов и ханских йарлыков Хивинского ханс-суфизма: источники и социальная практика. Ташкент: Фан, 1991,
8. Исмоилов Л.Э. Очерки истории мавераннахрского суфизма (XVI в.). – - Новосибирск : Вояж, печ. 2017
 9. Кныш Д. А. Мусульманский мистицизм. Краткая история. – М.-Спб., 2004. – С. 272.
 10. Положение об управлении Туркестанского края : [Утв. 12 июня 1886 г.. — Санкт-Петербург, 1886]. — 649-703 с.
 11. С.Н Абашин. Ислам в бюрократической практике царской администрации Туркестана (Вакуфное дело дахбитского медресе. 1892-1900) Сборник Русского исторического общества, 2003 - Русская панорама. -С 164